

KITOBOXONLIK KO‘RIK-TANLOVLARINING G‘OLIB VA SOVRINDORLARINI TAQDIRLASH



Haqberdiyeva Dilnoza

Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi
Respublika bolalar kutubxonasi
Matbuot kotibi

Annotatsiya: Kitobxonlik ko‘rik-tanlovlarining g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash

Kalit so’zlar: Tanlov, tadbir, kitobxonlik, ijodkor o‘quvchilar, O‘zbekiston radiosи

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4467-sون qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq ta’limi vazirligi va Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan bir qator ishlar amalgalash oshirilib kelinmoqda.

Xalq ta’limi vazirligi tomonidan o‘quvchi-yoshlar orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, mutolaa madaniyatini shakllantirish va o‘quvchilarda kitobxonlikni targ‘ib qilish maqsadida bir qator tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

Bugungi kunda xalq ta’limi tizimida 10098 ta kutubxona muassasalari mavjud bo‘lib, shundan 1 ta Respublika bolalar kutubxonasi, 13 tasi viloyat Bolalar kutubxonalari hamda 10085 tasi muktab kutubxonalari hisoblanadi. Ularga jami **5 328 494** nafar o‘quvchilar a’zo bo‘lgan.

Kutubxonalarda bugungi kunda jami **15 mln.** dan ortiq kitob fondi mavjud. Ularning kitob fondini boyitish maqsadida har yili o‘quvchilarga sinfdan tashqari mutolaa uchun badiiy adabiyotlar xarid qilinadi.

O‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish maqsadida turli madaniy-ma’rifiy, intellektual tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda. O‘quvchilar va ularning ota-onalari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish va rag‘batlantirish maqsadida ta’lim muassasalarida “Kitob taqdimoti”, “Adabiyot kunlari”, “Kitobim-oftobim” nomli ma’rifiy tadbirlar, “Maktab-kutubxona-oila-jamoat tashkilotlari” xayriya tadbiri va ota-onalar ishtirokida “Bir farzandga - uch kitob” aksiyalarini hamda “Eng yaxshi kitobxon o‘quvchi” va “Kitobxon muktab” tanlovlарini o‘tkazish yo‘lga qo‘ylgan.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida kitobxonlik muhitini yaratish maqsadida umumta’lim maktablarida xonadonlarda oilaviy kutubxona tashkil etish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ota-onalar o‘rtasida oilaviy kitobxonlikni targ‘ib qilish maqsadida “**Kitobxonlik festivali**” o‘tkazib kelinmoqda.

Xalq ta’limi vazirligi tashabbusi bilan 2021 yildan boshlab kutubxona muassasalarida “Kitobxonlik haftaligi” haftaligi tashkil etilmoqda. Haftalik doirasida bolalar adabiyoti ko‘rgazmasi, bolalar shoir va yozuvchilari bilan ijodiy uchrashuvlar, taqdimotlar, turli viktorina va intellektual tanlovlardan, ma’rifiy tadbirlar, mahorat darslari va anjumanlar tashkil etib kelinmoqda.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda bolalar yozuvchi va shoirlari ishtirokida onlayn muloqotlar tashkil etilmoqda.

Xalq ta’limi vazirligi tomonidan kitobxonlikni targ‘ib qilishda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari imkoniyatlaridan ham samarali foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda jami 12 viloyat Bolalar kutubxonasi va 41 ta umumta’lim muktab kutubxonalarida “Raqamli kutubxona” tizimi amaliyatga joriy etilgan. Shuningdek, 2022 yilda Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan 160 nomdagi o‘zbek va jahon adabiyoti yuksak namunalarining audiokitob variantlari yaratildi. Ushbu audiokitoblar kutubxonaning www.kitob.uz saytiga joylab borilmoqda.

Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Bolalar kutubxonasi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida yozgi ta’til vaqtida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida “Yil hikoyasi”, “Yilning eng iste’dodli yosh shoiri”, “Eng iste’dodli kitobxon” va “Mustaqillik madhi-bolalar ijodida” kabi mavzularda 10 ta ko‘rik-tanlovlardan tashkil qilindi.

Respublika Bolalar tomonidan o‘tkazilan mazkur tanlovlardan orqali 100 mingga yaqin o‘quvchilar qamrab olindi.

Joriy yilning 27-sentabr kuni O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faollar zalida Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika bolalar kutubxonasi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida “Yoz-2022” ta’til vaqtida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ijodkor o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va kitobxonlik madaniyatini oshirish maqsadida “Yil hikoyasi”, “Yilning eng iste’dodli yosh shoiri”, “Eng iste’dodli kitobxon” va “Mustaqillik madhi-bolalar ijodida” kabi mavzularda o‘tkazilgan 10 ta ko‘rik-tanlovlarning g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda kitobxonlik ko‘rik-tanlovlardan g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilar taqdirlandi.

San’atkorlar tomonidan ijro etilgan kuy-qo‘sishqlar bayramga o‘zgacha shukuh baxsh etdi. Ushbu taqdirlash marosimi ko‘tarinki ruhda o‘tib, unutilmas taassurotlarga boy bo‘ldi.